

OLAM LISONIY MANZARASIDA KONSEPT ATAMASINING TUZILISHI VA MAZMUNI

Burxonova Gulrux

Andijon Davlat chet tillari instituti

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Olam lissoniy manzarasida konsept atamasini tuzilishi va mazmuni haqida bo'lib, konsept bo'yicha olimlarning tadqiqot natijalari, tuzilishi va mazmun jihatdan tushunchadan farqli jihatlarini taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: konsept, konsepsiya, konseptosfera, lissoniy manzara, tushuncha, verbalizatsiya, kategoriya.

Olamning lissoniy manzarasini modellashtirish jarayonida ustuvor o'rin tayanch tushuncha, kategoriya va konseptlarga beriladi.

Hozirgi vaqtda konsept zamonaviy tilshunoslikning asosiy atamasidir. Ushbu asar rus tilidagi baxt tushunchasining semantik sohasini o'rganish va ko'p qirrali tahlil qilishga bag'ishlangan. Baxt axloq kategoriyasidir va dunyoqarashga ega. Bu har bir inson uchun sharsiz hayotiy qiymatni anglatadi. Baxt haqidagi g'oyalar madaniy o'ziga xoslik bilan ranglanadi va shuning uchun baxt tushunchasi dunyoning rus tilidagi rasmidagi muhim tushunchadir.

Konsept atamasi ilmiy iste'molga kirgan davrda uni «tushuncha» bilan tenglashtirish holatlar tez-tez kuzatilgan bo'lib,¹ tilshunos olim Yu.Stepanov ushbu birliklarning o'zaro sinonimligini uqtirish bilan birga ularning noo'xshashligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, atamalar o'rtasidagi asosiy farq ularning faoliyat muhiti bilan belgilanadi: tushuncha asosan, mantiq va falsafada qo'llaniladi, konsept esa mantiqning bir tarmog'i – matematik mantiq atamasi bo'lib, so'nggi paytlarda madaniyatshunoslik va lingvokulturologiyada ham mustahkam o'rinlashdi. «Madaniyat haqidagi fanda konsept atamasi faqat tuzilish haqida so'z yuritilganda, madaniy mazmun mavhumlashtirilganda qo'llaniladi»². Boshqacha aytganda, tushunchadan farqli o'laroq, konsept – bu nafaqat mantiqiy belgilarni, balki psixologik, ilmiy, emotsional, maishiy, badiiy vaziyat va hodisalarni o'z ichiga qamrab olgan ma'lum madaniy ahamiyatli kechinmadir.

Konsept lingvistik belgining mazmunli tomonini, shu jumladan konseptual, ratsional komponentdan tashqari, barcha g'ayritabiiy, psixologik ahamiyatga ega ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Konsepsiya atamasini lingvistik tahlil sohasiga jalb

¹ Кондаков Н. И. Логический словарь-справочник. – Москва: Наука, 1975.– С. 258.

² Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997.– С. 42.

qilish so‘z ma‘nolarining yangi jihatlarini, xususan, kulturologik, ushbu atama doirasida dastlabki etimologik ma‘noning rivojlanish dinamikasini kuzatish va matnlarda semantik o‘shlarning paydo bo‘lish qonuniyatlarini tushuntirishga imkon berdi.

N.Kondakov konsept atamasini «mulohazalar, ya‘ni fikrlarning bir butun yig‘indisi bo‘lib, ularda ob‘yektning farqli belgilari haqidagi nimadir ifodalanadi, ushbu ob‘yektning umumiy va shu bilan bir vaqtda muhim belgilari haqidagi fikr-mulohazalar yadrosi hisoblanadi tushuncha – predmet, hodisani anglash natijasi»³ deb tushunadi.

Axborot nazariyasi tafakkur va lisonning kesishishmaydoni bo‘lib, tafakkur vositasida inson atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatga kirishadi, uning vositasida voqelik obrazlari farqlanadi, hissiyot organlari va miya tomonidan qabulqilinayotgan axborot qayta ishlanadi va amaliy faoliyatgajalb etiladi. Axborot faoliyatini ta‘minlovchi ushbu jarayonmaxsus belgilar qo‘llanishi hamda axborotning belgilar yordamida ifodalanishi bilan boshqa tus oladi.

N.Kondakovning fikrlari yuqoridagi ta‘rifga hamohangdir: «moddiy lisoniy qobiq bilan chambarchas bog‘liq», «o‘z voqelanishini verbal shakllanishda topadi», «so‘zlarning shakllanish bazasida vujudga keladi va ulardan tashqarida mavjud emas. So‘z tushuncha tashuvchisi hisoblanadi... So‘z bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq tushuncha unga o‘xshash emas»⁴.

R.Karnapning semantik konsepsiyasi bo‘yicha «mavjud predmetlarning lisoniy ifodasi va denotatlari o‘rtasida ayrim mavhum ob‘yektlar –konseptlar ham bor»⁵.

Ayrim falsafiy lug‘atlar, xususan, I.Frolova tahriri ostidagi lug‘atda konsept tushuncha ma‘nolaridan birining sinonimi, ma‘nodoshi sifatida berilgan va g‘oyalar nomi deb talqin qilingan. «...tushuncha ushbu nomning adekvat qabul qilinish, o‘zlashtirilish shartidir»⁶.

Tadqiqotchi U.Yigitaliyev «konsept», «tushuncha» va «ma‘no» terminlarini tahlil qilib, shunday xulosaga keladi: «so‘zning leksik ma‘nosi va konsept tafakkur va kognitiv xususiyat bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, ongda borliqning aks etishi natijasidir. Biroq konsept kognitiv ong mahsuli bo‘lsa, so‘zning leksik ma‘nosi lisoniy ong mahsulidir. Konsept bilan so‘zning leksik ma‘nosi o‘rtasidagi farq shundaki, konsept konseptosfera birligi hisoblansa, so‘zning leksik ma‘nosi tilning semantik maydoni birligidir. Konseptning mohiyati kengroq bo‘lib, u o‘zida faqatgina ma‘no

³ Кондаков Н.И. Кўрсатилган манба.– Б. 456.

⁴ Кондаков Н.И. Кўрсатилган манба. – Б. 456 – 457.

⁵Карнап Р. [Значение и необходимость : исследование по семантике и модальной логике: монография - Москва: Изд-во иностр. лит., 1959](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=256402) // https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=256402

⁶ Философский словарь. Под ред. И.Т.Фроловой. – М.: Политиздат, 1991. – С. 203.

komponentlarini emas, inson hayotiy tajribasida orttirilgan bilimlarni, ongdagi axborot yig‘indisi, u yoki bu predmet yoki hodisa haqidagi ensiklopedik bilimlarni ham jamlaydi»⁷.

Konseptni ta’riflashga yo’naltirilgan ko‘plab yondashuvlarga qaramasdan, ilmiy adabiyotda uning definitsiyasi va mohiyatini tushunishga qaratilgan yagona yondashuv mavjud emas. Mazkur atamani anglashdagi qiyinchilik sababi uning tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, falsafa chegaralarida muvozanatni saqlab turgan kategoriyaning ko‘psathligi, o‘zida lingvistik, falsafiy sathlarni sintezlashi, turli ilmiy soha, yo‘nalish va tadqiqotlarda qo‘llanilayotganidadir.

A.S.Kubryakova ishlarida keltirilgan va hozir eng keng tarqalgan ta’rifga asosan konsept o‘zida tushunchaning kognitiv mohiyatiga diqqatni jalb qilgan holda «inson tajribasini aks ettiruvchi ong va axborot strukturasi birligi» hamda «olamning barcha manzarasi va bilim kvanti xotirasining tezkor birligi»ni namoyon etadi⁸.

O‘zbek tilshunosli olimi Sh.Safarov ham yuqoridagi ta’rifga havola keltiradi⁹ hamda konseptning shakllanishi individual obraz tug‘ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo‘lishi bilan tugashini ta’kidlaydi¹⁰.

Mazkur yondashuvda asosiy urg‘u konseptning milliyliigi bilan ajralib turishi tomon siljib boradi. Konsept shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarigau shakllanayotgan kontekstning tabiiy, ijtimoiy-madaniy xususiyatlari ham ta’sirini o‘tkazadi. Konsept o‘zida «ma’lum madaniyat kishisi ma’naviy tajribasining izi, belgisi»¹¹ni namoyon etadi.

D.Xudoyberganova «Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati»da konseptga uch nuqtai nazardan ta’rif beradi: «(lot. conceptus–tushuncha) 1.Kognitiv tilshunoslikda: inson ongining mental va ruhiy imkoniyatlari, uning bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tizimi birligi. 2. Lingvokulturologiyada: mentallik xususiyatiga hamda lisoniy ifodaga ega bo‘lgan, etnomadaniy o‘ziga xoslik bilan ajralib turuvchi jamoa ongi birligi. 3. Psixolingvistikada: insonning bilish va muloqot faoliyatida yuzaga keladigan, uning ruhiyati qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi harakatchan perseptiv-kognitiv-affektiv tuzilma»¹².

Mazkur kategoriyaning mukammal ta’riflaridan biri D.M.Kalishukning ishlaridataqdim etilgan. U konseptni «madaniyat olami va shaxsiy tushunchalar olami

⁷Йигиталиев У. Кўрсатилган манба. – Б. 34.

⁸ Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. – К.: ЛКИ, 2008 г. – 160 с. – С. 37.

⁹Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2008, – Б. 17.

¹⁰Сафаров Ш. Ўша ерда.

¹¹Тильман Ю.Д. Культурные концепты в языковой картине мира: автореф. дисс... кан. филол. наук. – М., 1999. – С. 9.

¹² Худойберганова Д. Лингвокультуроология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – Б.25.

o‘rtasidagi kesishish nuqtasi», tezkor mentalbirlik; mental leksikon, konseptual sistema va tilning bilish jarayonlarini amalga oshirish birligi»¹³ deb ta’riflaydi. Konsept strukturasida axloq, niyat, istak, maqsad, o‘y, qasd, ahdkabilar qadriyatlar sistemasini tashkil etadi. Ular inson hayotining barcha jabhalarini tartibga soladi, boshqaradi, yaxshilaydi yoki aksincha.

G.V.Tokarev konsept mazmuniy tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Birinchi turdagi konsept o‘zida butun insoniyat uchun ahamiyatli hisoblangan bilimlar majmuini ifodalaydi. Bunga yorqin misol sifatida ilmiy ijod jarayonida olimning umume’tirof etilgan tushunchalardan foydalanishini keltirish mumkin. Muallif bunday konseptlarni universal konseptlar deb ataydi. Ikkinchi turdagi konseptlar o‘ziga ma’lum bir belgilar (til, tarix, madaniyat, din va b.) bilan birlashtirib turuvchi lingvomadaniy jamoaga xos bo‘lgan milliy o‘ziga xos bilimlarni jamlaydi va ularni madaniy konsept deb atash mumkin¹⁴.

Keltirilgan ta’riflar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda konsept mohiyatini tushunishda ikki asosiy yondashuvni kuzatish mumkin¹⁵:

- 1) Olamning milliy-qadriyatli interpretatsiyasi bilan bog‘liq konsept tushunchasi;
- 2) Shaxsning kognitiv faoliyatini amalga oshirish mexanizmi bilan bog‘liq konsept tushunchasi;

Shuni ta’kidlash lozimki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yondashuvlar bir-birini inkor qilmaydi: konsept universal mental tuzilma sifatida ob’yektiv borliqni bilish, qabul qilish, ob’yektivlashtirish, kategoriyalashtirish vositasi; madaniy birlik sifatida individ tomonidan jamoa (millat) tajribasini, boshqacha aytganda, milliy o‘ziga xos tushunchalarni o‘zlashtirish vositasidir.

Shunday qilib, konsept o‘zida kognitiv va lingvistik, ratsional va emotsional, mavhum va konkret, universal va etnik, umumilliy va individual-shaxsiy xususiyatlarni jamlagan ko‘po‘lchamli kategoriya; bu «ong, til, matn va madaniyatning o‘zaro munosabatdorligini tavsiflovchi hodisadir»¹⁶. Konsept borliqning ma’lum bir lavhasini aks ettiruvchi va mavjud borliq ob’yektlarining nomlanishi va kategoriyalashtirilishiga muvofiq bo‘lgan mental birlikka aylangan, madaniy «libos»dagi tushunchani ifodalaydi, denotatsiya, konnotatsiyava emotsionallikni qamrab oladi. Umuman,

¹³Калищук Д.М. Базовые концепты современного англоязычного дискурса. Концепт «демократия» // Научный вестник Волынского ун-та им. Леси Украинки. – Луцк, 2009. – С. 81.

¹⁴Қаранг: Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: филол. фан. бўйича фалс.докт... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 23.

¹⁵ Чижова Л.Е. Специфика репрезентации концепта здоровье в речевом этикете // Известия Саратовского университета. Новая серия Филология. Журналистика.– Саратов, 2009. – С. 47.

¹⁶Крючкова Н. В. Роль референции и коммуникации в концептообразовании и исследовании концептов: на материале русского, английского, французского языков: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Саратов, 2009. – С. 9.

konsept o‘zida ma’lum bir til (demakki, madaniyat) egasining mental olamidagi so‘zning barcha ma’nolari, tasavvurlari, assotsiatsiyalari yig‘indisini mujassam etgan mohiyatini ifodalaydi¹⁷, demak, madaniy qadriyatlarga ega hamdir.

Qo‘shimcha qilib shuni aytish mumkinki, konsept tavsifida yakdillik bo‘lmagani bois, uning tuzilishi borasida ham yakdillik yo‘q. Ayrim olimlarning taxminicha, konsept strukturasisiz, chunki unga permanentlik xos; ayrimlari uchun konsept murakkab ko‘psathli qurilmadir.

Konseptning tuzilishi

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, konsepsiya ma’lum, murakkab tuzilishga ega. Konseptning asosiy yadrosi-bu ma’lum bir hissiy tasvir, universal mavzu kodining birligi. Neyrofiziologik substrat sifatida universal fan kodi konsepsiyasi N. I. Jinkin tomonidan ishlab chiqilgan. Umumjahon predmet kodining birliklari-bu atrofdagi voqelik bilan o‘zaro ta’sir qilish, uni ongda idrok etish va aks ettirish jarayonida inson ongida shakllanadigan bilimlarni kodlaydigan vizual hissiy tasvirlar. Umumjahon mavzu kodi har bir ma’ruzachi uchun sub’ektiv va individualdir, chunki u har bir odamda uning noyob, individual hissiy hayotiy tajribasining aksi sifatida shakllanadi.

Konseptning tarkibida uchta tarkibiy qismning mavjudligi – **konseptual, qiymat** va **majoziy-uning**, birinchi navbatda, uni ob’ektivlashtiradigan til bilan, ikkinchidan, madaniyat bilan milliy qadriyatlar va g‘oyalar tizimi sifatida, xalq tarixi va uning ma’naviy-ruhiy ombori, uchinchidan, inson ongi bilan bog‘liqligini oldindan belgilaydi. va uning faoliyati. Natijada, konsepsiya mazmunli va tarkibiy ko‘p o‘lchovlilik bilan ajralib turadi.

Konsept strukturasisida quyidagi darajalarni o‘z ichiga olgan bir qator struktur komponentlarni ajratib olish mumkin¹⁸:

- 1) etimologik darajao‘zida konsept semantikasi tarixiy taraqqiyot yo‘lining tavsifini, uning denotativ va konnotativ ma’nolari shakllanishini namoyon etadi;
- 2) asosiy daraja, o‘zida konseptning zamonaviy qomusiy ma’nolari majmuini namoyon qiladi;
- 3) assotsiativ-kengaytiruvchi daraja, konsept strukturasisida assotsiativ aloqalar negizida vujudga keluvchi barcha denotativ va konnotativ ma’nolari yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

Konsepsiyaning tuzilishi maydon tavsifini olishi mumkin – yadro va Periferiya nuqtai nazaridan. Yadroga eng sezgir-vizual konkretlikka ega prototipik qatlamlar, asosiy eng yorqin tasvirlar kiradi va ko‘proq mavhum belgilar konsepsiyaning atrofini

¹⁷ Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997. – С. 40.

¹⁸ Степанов Ю.С. Юқоридаги манба.– Б. 42-45; Филиппова М.А.Концепт «демократия» в американской лингвокультуре// Известия Волгоградского педагогического гос. ун-та,– Волгоград, 2007. – №2. – С. 18-22.

tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, konsepsiyaning yadrosi CPCNING prototipik birligi bo‘lib, uning periferiyasi yadroni o‘rab turgan asosiy qatlamlar tomonidan kamroq mavhumdan mavhumbgacha ketma-ketlikda hosil bo‘ladi. U yoki bu konseptual xususiyatning periferik holati uning konsepsiya sohasidagi ahamiyatsizligi yoki foydasizligini umuman ko‘rsatmaydi, balki majoziy tasvirning konkretligi va ravshanligi darajasi bo‘yicha uning yadrodan uzoqligini ko‘rsatadi. Tasvir va asosiy axborot mazmunidan tashqari, konsepsiya volumetrik talqin qismiga ega-konsepsiyaning eng kam tuzilgan qismi, uni alohida konseptual xususiyatlar va ularning birikmalarining talqinini aks ettiruvchi ro‘yxat sifatida tasvirlash mumkin.

Mazkur yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab tadqiqotchilar konsept strukturasi uch asosiy komponentni ajratadilar. Ular turlicha nomlanishlariga qaramasdan, quyidagicha birlashtiriladi

1) **etimologik, predmetli-obrazli qism, obrazliqism** – ob‘yektning bevosita moddiy va ma‘naviy idrok qilinishi, ijtimoiy madaniy borliqning tadqiq etilishi jarayonida tushunchaga qo‘shilgan birlamchi ma‘nosi;

2) **asosiy, tushunchaviy qism, axborot qismi** – konseptning hodisa, ob‘yektning idrok etish natijasida shakllangan barcha belgilari, sifat va xususiyatlari yig‘indisi;

3) **assotsiativ-kengaytiruvchi, tushunchaviy qism, interpretatsiya qilingan maydon qismi** – assotsiativ aloqalar, konseptning sintagmatik, paradigmatic munosabatlar, milliy konseptlar muhiti negizida til tashuvchisi ongida paydo bo‘luvchi barcha belgilar.

Shunday qilib, konseptning struktur komponentlari umumlashmasi uning mohiyati, til tashuvchisi ongidagi konsept bilan uyg‘unlashib ketgan tasavvur va ishonch-e‘tiqodlarning tarixiy taraqqiyotini ifodalagan barcha bilim, tavsif va belgilari yig‘indisini ifodalaydi.

Konsept strukturasi qat‘iy, o‘zgarmas struktura deb bo‘lmaydi. N.V.Kryuchkovaning ta‘biricha, u «qat‘iy variativ birlik: uning mazmuni madaniy-tarixiy, ijtimoiy, yosh, gender diskursiv omillar ta‘sirida ostida modifikatsiyalanadi»¹⁹.

Bundan tashqari, konseptlar ko‘lami muntazam ravishda yangi konseptual tavsif, ta‘riflarning paydo bo‘lishi yoki kashf qilinishi hisobiga yoki mazkur konsept bilan ifodalangan tushunchaning individual, jamoaviy, milliy yoki global ong ta‘sirida kengayib boradi. Boshqacha aytganda, modomiki, alohida shaxs yoki jamiyat yangi sifatlarni kashf qilib, ularni konsept tomonidan ifodalangan u yoki bu hodisa yoki jarayonga qo‘shimcha qilar ekan, albatta, konsept muntazam kengayib boraveradi.

¹⁹Крючкова Н.В. Роль референции и коммуникации в концептообразовании и исследовании концептов: на материале русского, английского, французского языков: автореф. дисс... док. филол. наук. – Саратов, 2009. – С. 7.

G.G.Slishkin konseptning asosiy tavsiflari sifatida quyidagilarni belgilaydi²⁰:

- 1) kompleks mavjudligi – konsept kompleks ifoda sifatida muntazam til, ong va madaniyat doirasida shakllanadi;
- 2) mental tabiatga ega;
- 3) til egasi ongi bilan cheklanganlik – konsept individual va jamoangida bir vaqtda mavjud bo‘ladi;
- 4) shartlanganlik–konseptning madaniyat vakillari ongining sinkretikligi bilan shartlanganligi;
- 5) kognitiv-umumlashtiruvchi yo‘nalganlik;
- 6) ifoda planidagi variantlilik – konseptni ifodalashda turli darajadagi verbal va noverbal belgilarni qo‘llash mumkinligi;
- 7) tarixiy-ijtimoiy, kasbiy, gender va b. omillarga bog‘liq o‘zgaruvchanlik, variativlik;
- 8) uch komponentlilik – konsept real borliqdagi uch ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

a) konsept sistemaviy potensial sifatida mavjud, ya’ni ushbu sistemaviy potensial «til egasi tomonidan to‘plangan va leksikografiyada qayd etilgan lisoniy merosdir»²¹;

b) konsept sub’yektiv potensial sifatida ham mavjuddir, ya’ni individuum xotirasida saqlanayotgan lisoniy me’rosdir; (v) konseptning matnli voqelanishi.

S.G.Vorkachev qo‘shimcha tarzda konseptning quyidagi belgilarini ajratadi²²:

- 1) **«hissiylik»**–shaxs konseptlarni boshidan kechirishi kerak;
- 2) **semiotik variantlilik (zichlik)**– konseptning sinonimlar orqali ifodalanishi (so‘zlar va sintaktik konstruksiyalar, mavzuiy maydon va qatorlar, paremiyalar, folklor syujetlari, axloqiy me’yor va stereotiplar, urf-odatlar, moddiy madaniyat predmetlari va h.k.);
- 3) **ifoda planiga bog‘langanlik**– konsept nomining assotsiativ, sintagmatik va paradigmatik aloqalarga kirishishi, ushbu nomning ahamiyatliligi.

Xullas, mavhum kategoriyani tushuncha, konsept sifatida identifitsikatsiyalashga imkon beruvchi belgini quyidagicha ifodalash mumkin (2-rasm).

Aytilgan fikrlarga qo‘shimcha qilish mumkinki, konseptlar madaniy markerlanganligi va yorqin milliy tabiatga egaligi bilan xarakterlanadi. Konsept

²⁰ Слышкин Г. Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты: монография. – Волгоград: Перемена, 2004. –С. 221.; Карасик В. И., Слышкин Г. Г. Базовые характеристики лингвокультурных концептов. – Волгоград, 2005. – Т. 3. – С. 13-15.

²¹ Лыткина О. И. Проблемы изучения концепта в современной лингвистике// Rhema. Рема. – М., 2009. –№4. – С. 72.

²² Воркачев С.Г. Лингвокультурный концепт: типология и области бытования: Монография. – Волгоград: ВолДУ, 2007. – С. 15 – 16.

o‘zining verbal yoki noverbal ifodasiga ega bo‘lishi, «o‘zining og‘zaki, verbal ifodasiga ega bo‘lmagan taqdirda ham o‘ziga muvofiq boshqa ifoda shaklini topishi mumkin»²³.

Konsept xususiyatlari:

- kompleks mavjudlik,
- mental tabiatga ega,
- tilegasi ongi bilan cheklanganlik,
- shartlanganlik,
- kognitiv-umumlashtiruvchi yo'naltirilganlik,
- ifoda planidagi variantlilik,
- o'zgaruvchanlik,
- uch kompetentlilik,
- "hissiylik",
- semiotik variantlilik,
- ifoda planiga bog'lanhanlik,

Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. O‘z ifoda shaklidan qat’iy nazar konseptlar olamning barcha ob’yektlari va hodisalarining ma’lum lisoniy madaniyat vakillari yoki umuminsoniy qanday tushunilishini ifodalaydi. Borliqning turfa xilligi konseptlarning ham shunday xilma-xilligini talab qiladi.

Xullas, ilmiy adabiyotlarda konsept tushunchasi ostida o‘zida milliy mentallik, tarixiy, ijtimoiy, madaniy xususiyatlari ta’sirida shakllangan, lingvistik va ekstralingvistik ifodasiga ega, kognitiv birlik, sxema, freymlarni biriktirgan murakkab tuzilma anglashiladi.

Konsept o‘z mohiyatiga ko‘ra murakkab tuzilma, unda bir qator komponentlar va qismlar, shu bilan birga etimologik, asosiy, assotsiativ qatorlarni ajratish mumkin.

Turli omillar, avvalo, milliy idrok intizomi, xalq, millat mentaliteti, konsept shakllanadigan madaniy me’yorlar ta’sirida ko‘rsatib o‘tilgan qismlar semantik va assotsiativ jihatdan muntazam boyib, o‘zgarib boradi. Ta’kidlash kerakki, bunday o‘zgarish uzoq vaqtni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES)

1. Кондаков Н. И. Логический словарь-справочник. – Москва: Наука, 1975.– С. 258.
2. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997.– С. 42.
3. Кондаков Н.И. Кўрсатилган манба.– Б. 456.
4. Кондаков Н.И. Кўрсатилган манба. – Б. 456 – 457.

²³ Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - М.: Гнозис, 2004. – С. 110.

5. Карнап Р. [Значение и необходимость : исследование по семантике и модальной логике: монография - Москва: Изд-во иностр. лит., 1959 // https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=256402](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=256402)
6. Философский словарь. Под ред. И.Т.Фроловой. – М.: Политиздат, 1991. – С. 203.
7. Йигиталиев У. Кўрсатилган манба. – Б. 34.
8. Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. – К.: ЛКИ, 2008 г. – 160 с. – С. 37.
9. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2008, – Б. 17.
10. Тильман Ю.Д. Культурные концепты в языковой картине мира: автореф. дисс... кан. филол. наук. – М., 1999. – С. 9.
11. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – Б.25.
12. Калищук Д.М. Базовые концепты современного англоязычного дискурса. Концепт «демократия» // Научный вестник Волынского ун-та им. Леси Украинки. – Луцк, 2009. – С. 81.
13. Қаранг: Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: филол. фан. бўйича фалс.докт... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 23.
14. Чижова Л.Е. Специфика репрезентации концепта здоровье в речевом этикете // Известия Саратовского университета. Новая серия Филология. Журналистика.– Саратов, 2009. – С. 47.
15. Крючкова Н. В. Роль референции и коммуникации в концептообразовании и исследовании концептов: на материале русского, английского, французского языков: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Саратов, 2009. – С. 9.
16. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997. – С. 40.
17. Степанов Ю.С. Юқоридаги манба.– Б. 42-45; Филиппова М.А. Концепт «демократия» в американской лингвокультуре// Известия Волгоградского педагогического гос. ун-та,– Волгоград, 2007. – №2. – С. 18-22.
18. Крючкова Н.В. Роль референции и коммуникации в концептообразовании и исследовании концептов: на материале русского, английского, французского языков: автореф. дисс... док. филол. наук. – Саратов, 2009. – С. 7.
19. Слышкин Г. Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты: монография. – Волгоград: Перемена, 2004. –С. 221.; Карасик В. И., Слышкин Г. Г. Базовые характеристики лингвокультурных концептов. – Волгоград, 2005. – Т. 3. – С. 13-15.
20. Лыткина О. И. Проблемы изучения концепта в современной лингвистике// Rhema. Рема. – М., 2009. –№4. – С. 72.
21. Воркачев С.Г. Лингвокультурный концепт: типология и области бытования: Монография. – Волгоград: ВолДУ, 2007. – С. 15 – 16.
22. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - М.: Гнозис, 2004. – С. 110.